

## G'ARAMLANGAN HOLATDAGI PAXTA HOMASHYOSINI ISHLAB CHIQARISH JARAYONIGA UZATISHDA FOYDALANILADIGAN TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TAVSIFI

**Axmadjonova Gulshoda Adixamjon qizi**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabasi

E-mail: [gulshodaaxmadjonova3@gmail.com](mailto:gulshodaaxmadjonova3@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chigitli paxtani dastlabki ishlash jarayonida paxta zavodlarida saqlashda hamda uni qayta ishlash jarayonlariga uzatishda keng qo'llaniladigan mashinalar hamda ularning kamchilik va muammolari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Avtomatlitashtirish,yopiq ombor, chigitli paxtani saqlash, paxta tayyorlov maskanlari, g'aram maydonlari, РБД rusumli g'aram buzgich, РП buzgich-ta'minlagich.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются машины, которые широко используются при хранении хлопка-сырца на хлопкопрядильных фабриках при первичной обработке и передаче его в процессы переработки, а также их недостатки и проблемы.

**Ключевые слова:** Автоматизация, закрытый склад, хранилище хлопка-сырца, хлопкоперерабатывающие предприятия, хлопкоочистительные поля, хлопкоочистительная дробилка РБД, хлопкоочистительная дробилка-поставщик РП.

Paxta maydonlaridan yig'ib olingan chigitli paxta asosan ikki hil usulda paxta tayyorlov punktlarida saqlanadi. Ushbu usullar ochiq tarzda g'aram maydonlarida hamda yopiq omborlarda saqlanadi. Paxtani terim mavsumi davomidagi miqdorini o'sishi paxtachilik hamda to'qimachilik tarmog'ini o'zaro bog'laydigan asosiy bo'g'in hisoblangan paxta tozalash sanoatining oldiga – qabul qilish jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, g'aramlash va chigitli paxtani qayta ishlashda zamonaviy texnika hamda texnologiyani qo'llash asosida tola va chigitning tabiiy sifat ko'rsatkichlarini ya'ni tabiiy hususiyatlarini saqlagan holda, ish va uskunalar unumdarligini oshirishni ta'minlash masalasini qo'yadi. [1] 454 Korxonona qoshidagi va korxonadan tashqaridagi paxta tayyorlov punktlarida paxta seleksion, sanoat navlari hamda belgilangan standartga muvofiq terim turi bo'yicha alovida saqlanadi. Ko'p tarqalgan va iqtisodiy

jihatdan saqlash paxtani ochiq maydonlarda g‘aramlash hisoblanadi. Chigitli paxta g‘arami  $22 \times 10$  yoki  $25 \times 14$  m o‘lchamda 8- 9m balandlikda va massasi 500-560 t. bo‘lgan ochiq maydonlarda shakllantiriladi. Yopiq usulda saqlashda har xil konstruksiyadagi foydali sig‘imi bitta blokda 250 t dan 2000 tonnagacha bo‘lgan omborlar va ayvonlar qo‘llaniladi. [2] Paxta massasini buzish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va uni uzatishda РП hamda РБД rusumli g‘aram buzgichni yaratish sanoat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, uni qo‘llanilishi chigitli paxtani idishsiz tashish imkoniyatini yaratdi.[3] Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida chigitli paxtani ishlab chiqarishga uzatish hamda transport vositalariga ortish РП hamda РБД rusumli mashinalar yordamida amalga oshirib kelinmoqda. Paxtani ishlab chiqarishga uzatish jarayoni ushbu mexanizatsiya vositalari bilan amalga oshirillishiga qaramay ushbu jarayonlardagi muammolar to‘liq o‘z yechimini topgan emas. Ushbu jarayonlar ko‘pchilik paxta tozalash korxonalarida to‘liq qo‘l mexnati yordamida, РП buzgich-ta’minalgich bilan qo‘l mehnatini aralash holda amalga oshirilmoqda. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida paxta g‘aramini buzish va uni ishlab chiqarishga uzatish mexanizmlari manan eskirgan bo‘lib, inson qo‘l mehnatini ko‘p talab etadi va to‘liq avtomatlasmaganligi sababli boshqaruvda bir qancha qiyinchiliklar va kamchiliklar tug‘diradi. Bu nafaqat mehnat sarfini oshishiga, balki, texnologik tifilishlar paydo bo‘lishiga, ortiqcha paxta miqdorini hosil bo‘lishiga va xokazolarga sabab bo‘ladi.Buning natijasida esa ish unumi bir muncha pastlab chigitli paxtani qayta ishlash vaqt davomiyligi cho‘ziladi, elektr energiyasi ko‘p sarf bo‘lishiga olib keladi. Chigitli paxta g‘aramini buzuvchi va ishlab chiqarishga uzatuvchi jixozlarni to‘liq avtomatlashirish nafaqat qo‘l mehnat sarfini pasaytiradi, birinchi navbatda esa paxta va uning mahsulotlarini sifat ko‘rsatkichlarini saqlash imkoniyatini yaratadi va paxta g‘aramlarini omborlarda uzoq vaqt qolib ketishini oldi olinadi. Ish unumdarligi oshadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. A.Sarimsakov, R.Muradov, B.Mardonov. Modeling Of The Process of Interaction of the Saw Cylinder with the Raw Material In The Process Of Ginning // TEST Engineering and Management (Scopus) May-June 2020 ISSN: 0193-4120 Page No.27386–27391 <http://testmagzine.biz/index.php/testmagzine/article/view/12709>.
2. R.Muradov, A.Karimov, F.Rakhimov, H.Kasimov // Ways to increase the efficiency of the stone device // Scientific and technical journal of NamMTI. Issue 1, 2020. ISSN 2181-8622
3. F.Rahimov, N.Rajapova, R.Muradov. Use of cotton and treatment of cotton food // International Conference on sustainable development and economics // June 24-25

2019 icsde 2019 issn: 2622-3341 june 24-25, 2019 840 mount katahdin trail, alpharetta, GEORGIA, 30022, USA.

4. F.Rakhimov, M. Salomova, H. Kasimov // Improvement of elements of pneumatic transport device // Problems of mechanics 2019.

5. 7. R.Muradov, F.Rakhimov, H.Kasymov, A.Karimov "Theoretical Study Of The Movement Of New Impurities And Heavy Impurities" The American Journal of Engineering and Technology, Volume02 Issue07 July 2020. DOI: -10.37547 / tajet. ISSN (e): 2689-0984 DOI: <https://doi.org/10.37547/tajet/Volume02Issue07-0>